O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va Armaniston Milliy Fanlar akademiyasi o’rtasida ilmiy-texnik hamkorlik to’g’risida Bitim imzolandi

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va Armaniston Milliy Fanlar akademiyasi o’rtasida onlayn uchrashuv tashkil etildi.

Uchrashuvda ikki davlat Fanlar akademiyalari faoliyati, hamkorlik istiqbollari, yo’nalishlari muhokama qilindi.

Onlayn uchrashuv davomida O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va Armaniston Milliy Fanlar akademiyasi o’rtasida ilmiy-texnik hamkorlik to’g’risida Bitim imzolandi.

Bitimga ko’ra, ilmiy-texnik salohiyatni mustahkamlash, har ikki tomon ilmiy muassasalari o’rtasidagi aloqalarni rivojlantirish va kengaytirish, ilmiy hamkorlikka ko’maklashish va o’zaro manfaatli sohaarda qo’shma ilmiy ishlanmalarni amaliy tadbiq etish ko’zda tutilgan.

Shuningdek, imzolangan mazkur Bitimga ko'ra, qo’shma ilmiy va ilmiy-texnikaviy loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, milliy va xalqaro grantlar dasturlari uchun qo’shma arizalar topshirish, ikki davlat ilmiy tashkilotlari negizida qo’shma ilmiy-ishlab chiqarish markazlarini tashkil etish, rivojlanayotgan texnopark zonalari doirasida ishlab chiqarish qo’shma korxonalarini tashkil etish, keng ko’lamli ilmiy yo’nalishdagi ilmiy tadbirlarni birgalikda tashkil etish yoki o’zaro ishtirok etish, ekvivalent olimlar almashinuvini amalga oshirish, talabalar va yosh olimlarning stajirovkalarini tashkil etish, ilmiy axborot almashish yo'lga qo'yiladi.